

Ma'muriy islohotlar — natijadorlikka yo'naltirilgan ixcham va professional davlat boshqaruvini yaratishning asosi



Ma'muriy islohotlar — natijadorlikka yo'naltirilgan ixcham va professional davlat boshqaruvini yaratishning asosi

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohada faol islohotlar amalga oshirilmoqda. Ularning eng muhim, shubhasiz, davlat boshqaruvi bilan bog'liq ma'muriy islohotlar hisoblanadi.

Darhaqiqat, davlat boshqaruvining markazlashib ketishi vazirlik va idoralar vakolatlarining bir-birini takrorlashi, agentliklarning haddan tashqari ko'payib ketishi, ortiqcha byurokratiyaning kuchayishiga sabab bo'ldi.

Prezidentimizning 2022 yil 21 dekabrdagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-sod Farmoni ushbu muammolarga o'ziga xos huquqiy yechim bo'ldi, deyish mumkin. Xususan, mazkur Farmonga ko'ra, 2023 yil 1 yanvardan boshlab mustaqil faoliyat yurituvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining sonini 61 tadan 28 tagacha, shu jumladan, vazirliklar sonini 25 tadan 21 tagacha qisqartirish belgilandi.

Boshqacha qilib aytganda, respublika davlat boshqaruvi organlari quyidagi tartibda isloh qilinmoqda: qayta tashkil etish, vazifa va funksiyalarni tegishli vazirlik va idoralarga o'tkazgan holda tugatish hamda tashkiliy bo'ysunuvni o'zgartirish. Mazkur chora-tadbirlar natijasida 1,5 trillion so'mdan ortiq byudjet mablag'lari iqtisod qilinishiga erishiladi va shtat birliklarini maqbullashtirish natijasida bo'shaydigan mablag'lar ijtimoiy masalalarni hal etishga yo'naltiriladi.

Davlat boshqaruvi apparatini saqlash bilan bog'liq xarajatlarning maqbullashtirilishi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish hamda byudjet mablag'larining sarflanishi ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi tuzilmasi isloh qilinib, Bosh vazirning 4 nafargacha o'rinnbosarlari lavozimi hamda Bosh vazir kotibiysi tashkil etilmoqda. Bu, o'z navbatida, zamonaviy talablarga javob beradigan ixcham davlat boshqaruvi tizimini

shakllantirish, qaror qabul qilish va masalani ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirishga xizmat qiladi.

Bu hali hammasi emas. Prezidentimizning 2022 yil 21 dekabr kundagi "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-447-son qarori ham ma'muriy islohotlarning huquqiy asosi sifatida qabul qilingan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi.

Mazkur qaror bilan Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari doirasida amalga oshiriladigan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlanib, unda bir qator muhim ahamiyatga ega bo'lgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar belgilandi.

Umuman olganda, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyati yangilangan talablar va tamoyillar asosida tashkil etilayotganligi ma'muriy islohotlar doirasida mamlakatimizda natijadorlikka yo'naltirilgan ixcham va professional davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Surxondaryo viloyat sudi sudyasi

Z.E.Mavlonov